<a href="#">Ergashev Nozim Nabiyevich</a>	
Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers .....	684
<a href="#">Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi</a>	
Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.....	687
<a href="#">Karimova Charos Abduhalim qizi</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari .....	691
<a href="#">Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi</a>	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili .....	695
<a href="#">Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</a>	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar .....	699
<a href="#">Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</a>	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	705
<a href="#">Zokirova Nargiza Akbarjonovna</a>	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari.....	710
<a href="#">Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</a>	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	714
<a href="#">Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</a>	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi.....	718
<a href="#">Berdiyeva Malika</a>	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish .....	721
<a href="#">Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</a>	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	726
<b>Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari .....	731
<b>Nazarova Mohigul Akmalovna</b>	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar .....	736
<b>Arabova Muxiba Bazarovna</b>	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств .....	740
<b>Хомидова Камола</b>	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
<b>Бекназаров Собиржон</b>	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni .....	748
<b>Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li</b>	
Ekometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari .....	752
<b>Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi</b>	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
<b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b>	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
<b>Мусаева Елена Казимовна</b>	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi .....	767
<b>Sh. L. Rahmonova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	770
<b>Saidova Dilbar Erkinovna</b>	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish .....	773
<b>Xakimova Xosiyat Jurayevna</b>	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari .....	776
<b>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati .....	785
<b>Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich</b>	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari .....	790
<b>Fozilova Mohigul Farxodovna</b>	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов .....	794
<b>Исаматдинова Машхура Икромжон кизи</b>	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari .....	799
<b>Shokirov Sherhali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich</b>	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili .....	803
<b>Nurmanova Nazira</b>	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati .....	807
<b>Toshova Shaxnoza Tojidorovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish .....	811
<b>Badalov Dilmurod Abdixalilovich</b>	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari .....	817
<b>Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi</b>	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking .....	822
<b>Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	826
<b>Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna</b>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
<b>Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna</b>	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish .....	835
<b>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</b>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
<b>Murodova Sarvigul Raxim qizi</b>	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы .....	843
<b>Ким Нигора Каримовна</b>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish .....	847
<b>Usmonova Xafiza</b>	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari ....	852
<b>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</b>	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish .....	857
<b>Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi</b>	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	861
<b>Xaydarov Oxunjon Murodjonovich</b>	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati .....	866
<b>B. Normamatova</b>	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari .....	869
<b>Bahranova Hulkar Bahran qizi</b>	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
<b>Berdiyev Bahodir Ravshanovich</b>	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari .....	875
<b>Botirova Zilola Nodirovna</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
<b>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish .....	882
<b>Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi</b>	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
<b>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</b>	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
<b>M. Ibragimova</b>	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida .....	894
<b>Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi</b>	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
<b>Murodillayeva Durdona Dilmurodovna</b>	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji .....	900
<b>Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi</b>	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni .....	903
<b>Quvvatova Ozoda Gulbek qizi</b>	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida .....	906
<b>Rashidova Xurriyat Sulaymonovna</b>	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
<b>Ravshanova Kamola Toxirovna</b>	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar .....	911
<b>To'rayeva Kamola Vosidjon qizi</b>	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari .....	914
<b>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish .....	916
<b>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</b>	



# TALABALAR ORASIDA ILMIIY- PEDAGOGIK TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Nurmatova Madina Odiljon qizi  
Qo'qon davlat universiteti v.b. dotsenti

Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi  
Qo'qon davlat universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 205-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalar o'rtasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishning asosiy jihatlari yoritilgan. Xususan, tadqiqot jarayonida aniq maqsadlarni belgilash, ilmiy rahbarni tayinlash, tadqiqot usullarini to'g'ri tanlash hamda uning amalga oshirilishini tizimli ravishda nazorat qilish muhimligi asoslab berilgan. Shuningdek, olingan ilmiy natijalarni tahlil qilish, sharhlash va ularning asosida kelgusidagi tadqiqotlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** talabalar, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar, tashkil etish, o'tkazish metodologiyasi, pedagogika.

**Abstract:** This article examines the key aspects of organizing scientific and pedagogical research among students. Particular attention is paid to setting clear research objectives, appointing a scientific supervisor, selecting appropriate research methods, and systematically monitoring the research process. In addition, the importance of interpreting research findings and developing practical recommendations for future studies is emphasized.

**Key words:** students, scientific and pedagogical research, organization, methodology, pedagogy.

**Аннотация:** В статье раскрываются основные аспекты организации научно-педагогических исследований среди студентов. Обоснована важность постановки четких целей исследования, назначения научного руководителя, выбора адекватных методов исследования и систематического контроля за ходом его реализации. Также подчеркивается необходимость интерпретации полученных научных результатов и разработки практических рекомендаций для последующих исследований.

**Ключевые слова:** студенты, научно-педагогическое исследование, организация, методология, педагогика.

## KIRISH

Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadni hamda uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq vazifalarni belgilash lozim. Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, metodologik masalalarni ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida faqat dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan cheklanib qolmasdan, pedagogika fanining metodologiyasini xususiy bilimlar tizimi sifatida aniq belgilab olish zarur. Bu, bir tomondan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan esa metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishning nazariy asoslari umumiy pedagogika fanining fundamental qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Xususan, B. Xodjayevning umumiy pedagogika nazariyasiga bag'ishlangan asarida pedagogik faoliyatning ilmiy asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonini tadqiq etishning metodologik tamoyillari tizimli bayon qilingan. Muallif pedagogik jarayonni ilmiy tahlil qilishda maqsad, vazifa va metodlarning uzviy bog'liqligini asoslab beradi. Shuningdek, Yuzlikayeva, Axmedova, Qurbonova va Tashmetova tomonidan tayyorlangan "Umumiy pedagogika" darsligida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning mazmuni, bosqichlari va ularning ta'lim amaliyotidagi o'rni keng yoritilgan bo'lib, talabalarni ilmiy izlanishga yo'naltirish masalasi muhim pedagogik vazifa sifatida talqin etiladi.

Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat masalalari esa ilmiy tadqiqotlarni samarali tashkil etishda muhim metodik omil hisoblanadi. Ro'ziyeva va Tolipov tomonidan 2019-yilda chop etilgan asarda pedagogik

texnologiyalarni qo'llash orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, o'qituvchi va talaba hamkorligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar pedagogik jarayonda ilmiy izlanish elementlarini joriy etish talabalarida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tizimli yo'lga qo'yishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar ilmiy faoliyatini tashkil etish masalalari Nurmatova Madina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham yoritilgan. Xususan, tutor faoliyatining ijtimoiy va pedagogik zaruratiga bag'ishlangan ilmiy maqolada talabalarning ilmiy izlanishga jalb etilishida ilmiy rahbar va yo'naltiruvchi pedagogning roli asoslab berilgan. Shuningdek, Is'hoqxon Ibratning ilm va ma'rifati sohasidagi xizmatlari, pedagogik yetakchilik va tarbiyaviy rahbarlikka oid maqolalarda ilmiy-tadqiqot faoliyati shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu tadqiqotlar talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish masalasini milliy pedagogik tajriba asosida yoritishi bilan ahamiyatlidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va preskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi obyektning nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, ikkinchisi tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Ushbu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi, ya'ni nazariy va me'yoriy metodologiyaga.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida quyidagilarni kiritish mumkin:

- “metodologiya” tushunchasining ta'rifi;
- fan metodologiyasining umumiy tavsifi va uning darajalari;
- metodologik bilimlar va faoliyatning tizim sifatida talqini;
- pedagogika sohasidagi tadqiqot faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari;
- pedagogik tadqiqot obyekt va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos esa talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida quyidagi masalalarni qamrab oladi: pedagogikaning obyektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shakllaridan farqli jihatlarni ilmiy asoslash; pedagogika sohasidagi ishlarning fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash; maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot obyektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarining bir xil qo'llanilishi; pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun tadqiqot asosnomasi muammo va mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot objekti va predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilindigan holatlar, ilmiy yangiligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyatini qamrab olishi, shuningdek, pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi, pedagogik fanlar tizimi hamda ularning o'zaro aloqasini o'z ichiga olishi zarur.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi. Falsafiy nuqtayi nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, ushbu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida talqin etiladi. Aniqlik, metodologiya predmeti faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariyani anglatadi.

Pedagogika metodologiyasi pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarni, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etuvchi axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga yo'naltirilgan faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqot faoliyat qamrab olingan. Ya'ni, bu yerda ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot nazarda tutiladi. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlarining rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari hamda tushunchalar tarkibini aniqlashtirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslash va ularning sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda pedagogik muammolarni umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki birinchisi “metodologiyani pedagogikaga qanday qo'llash mumkin” degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi umumnazariy savollar orqali pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy masalalar



yechimiga yo'naltiriladi. Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu muammo ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning to'liq va samarali hal etilishi esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqali ta'minlanadi.

O'z navbatida, pedagogika fani boshqa fanlar singari yangi faktlar va yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa, o'z navbatida, metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplarga tayangan holda shakllanadi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili "metodologiya" hamda "pedagogik metodologiya" tushunchalariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, "metodologiya" tushunchasi mazmunan "gnoseologiya" (bilish to'g'risidagi fan) hamda "nazariy bilish" kabi tushunchalarga yaqin turadi. Mazkur yo'nalish tarafdorlari masalaga bir yoqlama yondashib, metodologiyani faqat "bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot" yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu bilan birga, metodologiyaning "borliqni o'zgartirish metodlari to'g'risidagi ta'limot" ekanligi e'tibordan chetda qolib, u gnoseologik qolip bilan cheklanib qoladi.

Pedagogika fani metodologiyasi jamiyat taraqqiyoti sharoitida uzluksiz rivojlanib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi, pedagogika nazariyasi va amaliyoti, ta'lim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda pedagogika fanining rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning g'oyasi, mazmuni va natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarining jadal rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omillar hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashni, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga zarar yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo etadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar asosida sodir bo'lish sabablarini tahlil qilish va zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda maqsadga muvofiq, maqbul va ayni vaqtda samarali metodlarni tanlay olish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur va puxta ilmiy bilimlar berish jarayonining tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyatini, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish hamda bilish usullarini o'z ichiga oladi.

Ayni vaqtda talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish doirasida O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa va voqeiklar hamda ularning qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqadorligini, ularning izchil va uzluksiz rivojlanishini, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik hamda intellektual jihatdan takomillashuvini ta'minlashini, shuningdek, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va rolini hamda dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Mazkur shartlarga muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi, ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi, vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida aniq belgilanganligi, tadqiqot metodlari tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv, tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi, tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va ularni bayon etish hamda tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi kiradi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda tadqiqot jarayonini samarali boshqarish hamda talabaga yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida tajribali pedagogik xodimni ilmiy rahbar etib tayinlash zarur. Tadqiqot mavzusiga mos keladigan usullarni, jumladan, so'rovnoma, intervyu, kuzatuv, tajriba va statistik tahlil metodlarini tanlash lozim. Tanlangan usullar asosida ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish jarayoni amalga oshiriladi. To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, tadqiqot natijalari sharhlanadi va tegishli xulosalar chiqariladi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini ilmiy anjumanlar va konferensiyalarda taqdim etish orqali ularni keng jamoatchilikka yetkazish mumkin.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda olingan natijalardan kelib chiqib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot mavzusini tanlashda ehtiyotkorlikka rioya etish, shuningdek, shaxsiy qiziqish va chuqur o'rganishga undovchi mavzularni tanlash tavsiya etiladi.

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish jarayonida ilmiy rahbar bilan uzviy va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Tadqiqot jarayonida ilmiy rahbar bilan doimiy aloqada bo'lish, uning tavsiyalarini inobatga olish va ilmiy fikr almashish muhim hisoblanadi. Tadqiqotni belgilangan muddatda yakunlash uchun vaqtini to'g'ri rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va sharhlashda aniqlik hamda ehtiyotkorlikka rioya etish lozim. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llash orqali o'z ta'lim muassasasida ma'naviy-pedagogik faoliyatni yaxshilashga hissa qo'shish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, talabalar o'rtasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun ularni loyihalar asosida jalb qilish, o'quv va ilmiy jarayonlarni o'zaro bog'lash, tadqiqot guruhlarini shakllantirish hamda ilmiy rahbarlik tizimini yo'lga qo'yish zarur. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur va puxta ilmiy bilimlar berish jarayonining tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, undagi aloqa va qonuniyatlarni maxsus tekshirish hamda bilish usullaridan iboratligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot natijalarini muhokama qilish, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish va ularni nashr etish uchun zarur sharoitlar yaratish, shuningdek, tadqiqot faoliyatiga oid moddiy-texnik bazani ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda pedagogik jihatdan yetarli darajada shakllangan bo'lish zarur, deb hisoblayman.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. – Toshkent, 2017-yil, "Sano-standart" nashriyoti.
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012-yil.
3. Ro'ziyeva D. I., Tolipov O'. Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019-yil.
4. Nurmatova, Madina. "History of Origin and Social and Pedagogical Need of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology, 3, 2023-yil, 151–154-betlar.
5. Nurmatova, Madina Odiljon qizi. "Is'hoqxon Ibratning ilm va ma'rifat sohasidagi xizmatlari." Academic Research in Educational Sciences, 3, NUU Conference 2, 2022-yil, 419–422-betlar.
6. Nurmatova, Madina Odiljon qizi. "Psixologo-pedagogik xususiyatlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar." Molodej i XXI vek–2015, 2015-yil.
7. Nurmatova, Madina. "Uchitel–rukovoditel vospitaniya." Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire, 8–2, 2018-yil, 58–60-betlar.
8. Nurmatova, Madina. "Odob as-solixin asari – odob-axloq va xulq-atvor qoidalari qo'llanmasi." Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire, 5–6, 2018-yil, 53–55-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.